


FAR'ONA VILYOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



(2021- yil yanvar-may oylari
uchun dastlabki
ma'lumot)

Viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021-yilning yanvar-may oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **620, mln. AQSh dollarini** tashkil etib, 2020-yilga nisbatan **122,8 mln. AQSh dollariga yoki 24,7 %ga** ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-may mln. AQSh dollari)


	2020 -yil	2021- yil	O'sish sur'ati, %da	Jamiga nisbatan, %da
Tashqi savdo aylanmasi	497,2	620,0	124,7 %	x
Eksport	189,7	255,0	134,4%	100,0
tovarlar	186,5	250,8	134,5	98,3
xizmatlar	3,2	4,2	129,9	1,7
Import	307,5	364,9	118,7 %	100,0
tovarlar	301,8	361,4	119,8	99,1
xizmatlar	5,6	3,5	61,5	0,9
Saldo	-117,8	-109,9	x	x



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rnlarda TIF TN) bilan birlashtirilgan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rnlarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi **255,0** mln. AQSh dollariga (**34,4** %ga ko'paydi) va import hajmi **364,9** mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati **118,7** %ga teng bo'ldi) yetdi. Hisobot davrida – **110,0** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

FARG'ONA VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-may, mln. AQSh dollar)




Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnni bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Pokiston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar- may)



Farg'ona, jahoning **76** ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (**28,1 %**), Rossiya Federatsiyasida (**17,3 %**), Qozog'istonda (**13,5 %**), Qirg'iz Respublikasi (**8,2 %**), Turkiya (**7,3 %**) va Turkmanistonda (**3,6 %**) qayd etilgan.



(yanvar- may, mln. AQSh dollar'i)



	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Xitoy Xalq Respublikasi	138,7	107,5	174,1
	<i>Eksport</i>	44,4	20,1	46,3
	<i>Import</i>	94,3	87,4	127,8
	Rossiya Federatsiyasi	98,9	97,6	107,5
	<i>Eksport</i>	40,5	39,7	57,1
	<i>Import</i>	58,4	57,9	50,4
	Qozog'iston	93,0	101,6	83,6
	<i>Eksport</i>	36,7	14,4	17,3
	<i>Import</i>	56,3	87,2	66,3
	Qirg'iz Respublikasi	37,6	65,5	50,6
	<i>Eksport</i>	22,5	53,9	33,9
	<i>Import</i>	15,1	11,6	16,7
	Turkiya	37,5	29,5	45,1
	<i>Eksport</i>	18,5	15,1	25,2
	<i>Import</i>	19,0	14,4	20,0
	Turkmaniston	1,1	8,2	22,1
	<i>Eksport</i>	0,1	0,2	0,4
	<i>Import</i>	1,0	8,0	21,7
	Polsha	11,7	8,8	14,8
	<i>Eksport</i>	9,2	8,5	12,7
	<i>Import</i>	2,5	0,3	2,1
	Koreya Respublikasi	13,9	11,0	12,6
	<i>Eksport</i>	3,5	2,9	3,2
	<i>Import</i>	10,4	8,1	9,4
	Tojikiston	11,8	8,0	12,2
	<i>Eksport</i>	2,0	3,4	7,4
	<i>Import</i>	9,8	4,6	4,8
	Pokiston	0,8	0,1	10,3
	<i>Eksport</i>	0,6	0,1	10,0
	<i>Import</i>	0,2		0,3



FARG'ONA VILOYATIINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSh dollar)



	Davlatlar	2019- y.	2020-y.	2021- y.
	Afg'oniston	2,8	6,0	8,9
	<i>Eksport</i>	2,8	6,0	8,9
	<i>Import</i>	-	-	-
	Germaniya	11,6	5,2	7,9
	<i>Eksport</i>	0,8	0,8	0,7
	<i>Import</i>	1,1	4,4	7,2
	Misr	0,5	4,1	5,6
	<i>Eksport</i>	0,3	4,1	5,6
	<i>Import</i>	0,2	0,0	0,0
	Eron	3,5	0,8	4,8
	<i>Eksport</i>	1,6	0,1	2,6
	<i>Import</i>	1,8	0,7	2,2
	Vyetnam	1,7	1,4	4,6
	<i>Eksport</i>	1,7	1,3	3,5
	<i>Import</i>	0,0	0,1	1,1
	Hindiston	1,8	3,0	4,2
	<i>Eksport</i>	0,07	1,2	0,3
	<i>Import</i>	1,7	1,8	3,9
	Italiya	1,8	2,3	3,9
	<i>Eksport</i>	0,3	0,04	0,7
	<i>Import</i>	1,5	2,3	3,2
	Ukraina	4,7	3,1	3,8
	<i>Eksport</i>	2,2	2,3	1,3
	<i>Import</i>	2,5	0,8	2,5
	Belarus	2,5	2,0	3,5
	<i>Eksport</i>	1,1	1,0	1,9
	<i>Import</i>	1,3	1,0	1,6
	Chehiya	1,0	1,3	3,5
	<i>Eksport</i>	0,7	1,1	0,8
	<i>Import</i>	0,3	0,2	2,6





FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar- may 2021- yil)



Shaharlat va tumanlar	2020-y. mln. AQSH doll	2021-y. mln. AQSH doll	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona sh.	112,6	73,8	65,5
Qo'qon	85,2	148,4	174,1
Quvasoy	20,3	22,4	110,7
Marg'ilon	22,3	35,0	156,7
Oltiariq t.	26,6	24,0	90,1
Qo'shtepa	15,9	27,7	174,7
Bag'dod	5,4	6,3	117,8
Buvayda	7,6	8,3	108,9
Beshariq	9,1	15,7	171,5
Quva	14,3	16,6	116,3
Uchko'prik	57,1	70,2	122,9
Rishton	5,1	7,7	151,5
So'x	1,8	1,2	63,5
Toshloq	49,9	68,2	136,6
O'zbekiston	9,9	11,5	115,8
Farg'ona	17,8	24,5	137,6
Dang'ara	16,9	24,7	146,7
Furqat	2,1	5,4	253,8
Yozyovon	16,0	27,1	169,6

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qo'qon shahri **23,9 %** ulush bilan **148,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni So'x tumani **0,2 %** ulush bilan **1,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.




Farg'ona viloyatining tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021-yilning yanvar-may oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **45,9** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020-yilga nisbatan **0,9** %ga kamaygan.

FARG'ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar- may, mln. AQSh dollari, ulushi, %da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-may oylarida 2020- yilga nisbatan **59,8** %ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **54,1** %ni tashkil etdi.





FARG'ONA VILOYATINING MDH MAMLAkATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar- may, mln. AQSh dollarari)



Rossiya Federatsiyasi
TSA – 107,5
Eksport – 57,7
Import – 50,4

Qozog'iston
TSA – 83,6
Eksport – 17,3
Import – 66,3

Qirg'iz Respublikasi
TSA – 50,6
Eksport – 34,0
Import – 16,6

Turkmaniston
TSA – 22,1
Eksport – 0,4
Import – 21,7

Tojikiston
TSA – 12,2
Eksport – 7,4
Import – 4,8

Ukraina
TSA – 3,8
Eksport – 1,3
Import – 2,5

Belarus Respublikasi
TSA – 3,5
Eksport – 1,9
Import – 1,6

Ozarbayjon
TSA – 0,5
Eksport – 0,3
Import – 0,2

Moldova Respublikasi
TSA – 0,7
Eksport – 0,7
Import – 0,0

Armaniston
TSA – 0,2
Eksport – 0,2
Import – 0



Farg'ona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (17,3 %), Qozog'iston (13,5 %), Qirg'iz Respublikasi (8,2 %), Turkmaniston (3,6 %) va Tojikiston (2,0 %) davlatlari bilan qayd etildi.




FARG'ONA VILOYATI EKSPORTI (2021- yil yanvar-may)

EXPORT

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatning eksportyrlari soni **484** tani tashkil etib, ular tomonidan **255,0** mln. AQSh dollari qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **34,4** %ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021-yil yanvar-may, ulushi, %da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **90,7** %ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**60,7** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**21,4** %) va turli xil tayyor buyumlar (**8,6** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



FARG'ONA VILOYATI XSST BOYICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan. %da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami eksport	189,7	255,0	85,5	134,4	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	65,1	54,6	82,1	83,9	34,3	21,4
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,2	603,9	80,4	0,1	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	22,2	10,6	268,9	47,9	11,7	4,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	1,9	2,1	23,6	110,3	1,0	0,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,0	1025,4	12,6	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	4,1	5,0	481,1	121,8	2,2	2,0
Sanoat tovarlari	83,4	154,9	72,0	185,6	44,0	60,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	0,4	1,2	138,1	331,3	0,2	0,5
Turli xil tayyor buyumlar	9,0	22,1	164,9	245,4	4,8	8,7
Xizmatlar	3,3	4,3	89,5	129,9	1,7	1,6

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-may)



XSST bo'lumi nomi	Min. AQSh dollarri	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	44,5	74,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	8,6	194,5
Tirik hayvonlar,03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	0,2	180,7
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,1	473,8
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,2	84,1
Tamaki va tamaki mahsulotlari		
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	6,1	151,4
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	1,4	8,6
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	1,1	220,6
Qog'oz massasi va makulatura	1,8	119,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2,1	110,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,01	12,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa toifaga kiritilmagan kimyoviy mahsulotlar	0,5	116,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,1	257,4
O'g'itlar	2,8	97,0
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,07	100



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar -may)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollarari	2020- yilga nisbatan, %da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xhash mahsulotlar	148,9	184,4
Boshqa toifaga kiritilmagan metelldan tayyorlangan mahsulotlar	0,3	125,6
Qog'oz va karton	0,5	270,1
Ruda bo'Imagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	5,2	269,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini		
Avtomobillar	1,0	442,2
Aniq sohalar uchun mashina va uskunalar	0,1	41 m
Sanoat uchun maxsus bo'Imagan mashinalar va ularning detallari	0,06	49,4
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	15,3	288,9
Har xil tayyor buyumlar	3,0	197,6
Poyabzal	3,1	144,4



MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSh dollar, ulushi, %da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariiga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019-yilning yanvar-mayiga **49,4%** dan 2021- yilning yanvar-mayiga **47,2%** ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarining jami eksportdagi ulushi **52,8 %ni** tashkil etdi.



Rossiya Federatsiyasi



22,4 %

Xitoy Xalq Respublikasi



18,2 %

Qirg'iziston



13,3 %

Turkiya



9,9 %



Qozog'iston
6,8 %



Polsha
5,0 %



Pokiston
3,9 %

VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020- yil yanvar-may, %da)

2021- yilning yanvar-may oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining **22,4 %**), Rossiya Federatsiyasi (**18,2%**), Qirg'iz Respublikasi (**13,3 %**), Turkiya (**9,9 %**), Qozog'iston (**6,8 %**), Polsha (**5,0 %**) va Pokiston (**3,9%**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **79,4 foizni** tashkil etmoqda.

FARG'ONA VILOYATI ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar- may, yillar kesimida)



Davlatlar	Mln. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, %da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Rossiya Federatsiyasi	39,7	57,1	98,0	143,9	2	1
Xitoy Xalq Respublikasi	20,1	46,3	45,2	230,6	3	2
Qirg'iz Respublikasi	54,0	34,0	239,9	62,9	1	3
Turkiya	15,1	25,2	81,9	166,4	4	4
Qozog'iston	14,4	17,3	39,3	119,7	5	5
Polsha	8,5	12,7	92,2	150,8	6	6
Pokiston	0,1	9,9	17,8	100,5 m	18	7
Afgoniston	5,9	8,9	214,7	149,6	7	8
Tojikiston	3,4	7,4	176,7	215,5	9	9
Misr	4,1	5,6	1307,2	137,1	8	10
Vyetnam	1,3	3,5	75,0	272,6	12	11
Koreya Respublikasi	2,9	3,2	81,6	111,8	10	12
Bangladesh	1,3	3,1	12,7	229,9	13	13
Eron	0,1	2,6	6,7	23,8 m	19	14
Peru	0,4	2,0	100	498,5	16	15
Belarus	1,0	1,9	89,2	188,2	14	16
Braziliya	0,0	1,8	0,0	100	20	17
Belgiya	0,5	1,6	55,7	310,3	15	18
Ukraina	2,3	1,3	101,1	57,4	11	19
Latviya	0,3	1,1	74,5	316,7	17	20





FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-may)



Hududlar	2020-y. mln. AQSH doll	2021-y. mln. AQSH doll	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona sh.	10,6	16,1	151,7
Qo'qon	40,5	62,8	154,9
Quvasoy	8,5	6,8	80,0
Marg'ilon	3,5	3,7	106,1
Oltiariq t.	18,1	12,9	71,0
Qo'shtepa	6,1	15,9	261,2
Bag'dod	3,4	3,5	103,4
Buvayda	5,4	6,1	111,4
Beshariq	6,0	6,5	108,6
Quva	11,0	10,6	96,5
Uchko'prik	9,9	20,5	207,8
Rishton	4,1	6,5	158,1
So'x	1,1	0,8	67,8
Toshloq	42,2	55,2	130,9
O'zbekiston	3,7	4,7	127,9
Farg'ona	4,3	10,3	240,1
Dang'ara	4,1	5,8	140,8
Furqat	1,6	3,5	219,9
Yozyovon	4,6	2,2	49,1



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Farg'ona meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoxda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **45,1** mln. AQSh dollarini qiymatiga teng **57,0** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020-yilning mos davriga nisbatan **15,1** mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, **25,1** %ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **12,1** mln. AQSh dollariga teng **34,4** ming tonna sabzavot, shuningdek, **31,3** mln. AQSh dollari qiymatidagi **21,0** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar-may)



Meva va rezavorlar
21,0 ming. t
31,3 mln. AQSh. doll



Sabzavotlar
34,4 ming. t
21,1 mln. AQSh.doll



Uzum
36,6 t
58,8 ming. AQSh. doll



Yer yong'oq
0,8 ming. t
0,9 ming. AQSh. doll



Qurutilgan uzum (mayiz)
0,4 ming. t
0,4 mln. AQSh. doll



Tarvuz va qovun
0,3 ming t
0,3 mln. AQSh. doll



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Afg'aniston hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **6,3 %**ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-may)



Davlatlar	ming tonna	mln. AQSh dollarisi	ulushi, %da *
Qirg'iz Respublikasi	13,4	18,5	41,0
Rossiya Federatsiyasi	15,3	13,1	29,0
Qozog'iston	25,4	11,7	25,9
Xitoy Xalq Respublikasi	0,4	0,4	0,9
Afg'oniston	0,4	0,3	0,7
Pokiston	0,4	0,3	0,6
Boshqa davlatlar	1,7	0,8	1,7

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **41,0 %**), bu Afg'onistonga eksport hajmidan **5,2** baravar ko'pdir.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniغا tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda **164,7** mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiylashtirilgan eksportning **64,6** %ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **88,2** %ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (**77,0** %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**9,3** %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **146** turdag'i to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **43** ta davlatiga eksport qilindi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)



Tovar nomi	2019 yil	2020 yil	2021 yil
Paxtadan yigirilgan ip	118,0	87,5	164,7
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	101,5	65,4	126,8
Gilamlar	3,0	5,3	15,3
Naqshli mato	0,03	0,0	0,1
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	1,1	2,1	2,9
Paxtadan gazlamalar	1,5	1,6	2,1
Ipak va ipak mahsulotlari	8,0	10,1	12,7
Paxta mahsulotlari	1,5	1,6	2,6
Boshqalar	1,1	1,2	1,8
	0,3	0,2	0,4



DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSh dollar)



		2019- yil	2020- yil	2021- yil
	Xitoy Xalq Respublikasi	49,7	18,8	44,4
	Rossiya Federatsiyasi	25,7	20,7	39,1
	Turkiya	13,7	14,0	23,0
	Polsha	6,2	8,3	11,5
	Pokiston	0,0	0,0	9,5
	Misr	4,1	4,1	5,6
	Qirg'iz Respublikasi	0,6	2,1	5,4
	Bangladesh	5,2	1,3	3,1
	Eron	0,2	0,1	2,6
	Koreya Respublikasi	2,3	2,3	2,4
	Tojikiston	0,8	0,2	2,1
	Peru	0,0	0,4	2,0
	Braziliya	0,0	0,0	1,8
	Qozog'iston	0,4	0,4	1,3
	Boshqa davlatlar	9,1	14,8	11,0

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (**44,4** mln. AQSh dollar – **27,0** %) , Rossiya Federatsiyasi (**39,1** mln. AQSh dollar – **23,8** %) va Turkiya (**23,0** mln. AQSh dollar – **13,9** %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar- may, ulushi, %da)



Transport xizmatlari

85,1 %

Moliyaviy xizmatlar

8,9 %

Safarlar (turizm)

4,4 %

Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari

1,6 %

Xizmatlar eksporti hajmi **4,3** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **1,7 %**ini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **29,9 %**ga o'sganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**85,1 %**) va safarlar (turizm) (**4,4 %**), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**1,6 %**) hamda moliyaviy xizmatlar (**8,9 %**) hissasiga to'g'ri kelgan.




FARG'ONA VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-may)

2021- yilning yanvar-may oylarida import hajmi **364,9** mln. AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **18,7 %**ga o'sdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**30,8 %**), sanoat tovarlari (**22,9 %**) hamda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**17,5 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar- may, ulushi, %da)



Tovarlar importi dinamikasi tahviliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-mayida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **59,6** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **361,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **3,5** mln. AQSh dollariga yetdi.

FARG'ONA VILOYATINING XSST BOYICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Min. AQSh dollarari		O'sish sur'ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan. %da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami import	307,5	364,9	95,7	118,7	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	39,6	52,2	118,7	131,7	12,9	14,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,2	100,0	29,7 m	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,3	9,2	41,4	174,0	1,7	2,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	86,3	64,0	237,2	74,2	28,1	17,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	6,2	7,0	240,8	113,5	2,0	1,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	23,1	19,9	91,9	86,2	7,5	5,4
Sanoat tovarlari	53,5	83,6	57,1	156,2	17,4	22,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	76,9	112,4	73,1	146,2	25,0	30,8
Turli xil tayyor buyumlar	11,0	12,9	113,5	118,2	3,6	3,7
Xizmatlar	5,6	3,5	215,7	61,5	1,8	0,9

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-may)



XSST bo'lumi nomi	Mln. AQSh dollarri	2020-yilga nisbatan, %da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	31,0	122,5
Tirik xayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan xayvonlardan tashqari	5,3	377,3
Xayvonlar uchun ozuqalar (maydalangan donlardan tashqari)	2,0	190,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3,4	141,4
Meva va sabzavotlar	8,7	107,7
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,2	29,7 m
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	3,6	146,1
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	1,2	372,6
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	2,7	271,6
Kauchuk	0,6	79,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	58,4	70,4
Ko'mir, koks va briketlar	5,5	166,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	7,0	113,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2,8	38,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	5,7	125,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	3,3	134,6
Bo'yoqlar	3,1	141,9



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollarri	2020- yilga nisbatan, %da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	20,3	119,2
Metalldan tayyorlangan buyumlar	11,6	260,4
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	15,5	144,9
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	15,2	271,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	46,0	106,7
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	30,8	170,3
Elektr apparatlar va asbob uskunalar	10,3	276,4
Avtomobillar, asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtoulovlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari)	11,0	185,5
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	4,8	240,7
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	3,7	50,1
Har xil tayyor buyumlar	2,2	253,3
Mebel va uning qismlari	0,5	368,8
Poyafzal	0,5	193,6



MDH va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushi 45,0:55,0 nisbatni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar- may, mln. AQSh dollarari, ulushi, %da)



2021- yilning yanvar-may oylari yakuni bo'yicha Farg'ona viloyati tomonidan **59** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Qirg'iziston Turkiya va Koreya Respublikasi jami importning **85,7 %** ulushini tashkil qildi, bu **312,3** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR NING ULUSHI
(2021- yil yanvar-may % da)

Xitoy Xalq Respublikasi



35,0 %

Qozog'iston



18,2 %

Rossiya Federatsiyasi



13,8 %

Turkmaniston



6,0 %



Turkiya

5,5 %



Qirg'iziston

4,6 %



Koreya Respublikasi

2,6 %

FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARIGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may, yillar kesimida)



Davlatlar	Mln. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, %da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	87,4	127,8	92,7	146,2	1	1
Qozog'iston	87,2	66,4	154,9	76,1	2	2
Rossiya Federatsiyasi	57,9	50,4	99,1	87,0	3	3
Turkmaniston	8,1	21,7	794,6	269,6	7	4
Turkiya	14,4	19,9	76,0	138,3	4	5
Qirg'iz Respublikasi	11,6	16,6	76,6	143,7	5	6
Koreya Respublikasi	8,1	9,4	78,1	116,6	6	7
Germaniya	4,4	7,2	40,2	164,4	9	8
Tojikiston	4,6	4,8	46,6	104,6	8	9
Hindiston	1,9	3,9	111,5	206,4	11	10
Shveytsariya	1,6	3,2	141,0	199,2	12	11
Italiya	2,3	3,2	146,8	140,7	10	12
Ekvador	1,3	2,7	132,1	210,3	14	13
Tayvan	0,0	2,7	0,5	305 p	20	14
Litva	1,5	2,7	37,1	185,1	13	15
Cheh Respublikasi	0,2	2,6	63,1	1243,0	19	16
Ukraina	0,8	2,5	32,5	308,4	16	17
Eron	0,7	2,2	37,3	312,1	17	18
Polsha	0,3	2,1	13,0	643,4	18	19
Belarus	0,9	1,6	69,2	176,0	15	20

FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (yanvar-may 2021- yil)



Shaharlar va tumanlar	2020-y. mln. AQSH doll	2021-y. mln. AQSH doll	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona sh.	102,0	57,7	56,6
Qo'qon	44,7	85,7	191,6
Quvasoy	11,8	15,6	132,7
Marg'ilon	18,9	31,3	166,0
Oltiariq t.	8,5	11,1	130,8
Qo'shtepa	9,8	11,8	121,0
Bag'dod	2,0	2,8	141,9
Buvayda	2,2	2,3	102,5
Beshariq	3,1	9,2	291,4
Quva	3,3	6,1	181,5
Uchko'prik	47,3	49,7	105,2
Rishton	1,0	1,2	123,5
So'x	0,7	0,4	56,4
Toshloq	7,7	13,0	167,8
O'zbekiston	6,2	6,8	108,6
Farg'ona	13,5	14,2	105,1
Dang'ara	12,8	19,0	148,6
Furqat	0,5	1,9	353,7
Yozyovon	11,4	24,8	217,9

MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021- yil yanvar-may oylarida import tarkibida mashinalar va transport- asbob uskunalar hajmi **112,4** million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **46,2** %ga o'sdi va importning umumiy hajmidagi ulushi **30,8** %ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalar asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021-yil yanvar-may)



XXR	68,9 mln.
AQSh. doll	
Turkiya	11,9 mln.
AQSh.doll	
Germaniya	4,6 mln.
AQSh. doll	
Rossiya Federatsiyasi	3,5 МЛН.
долл. США	
Koreya Respublikasi	3,4 mln. AQSh. doll
2,8 %	

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
tel.: (73) 241-97-68